


TOSHKENT VILOYATIINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2019 yil yanvar-avgust)


2019 yil yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, viloyatda tashqi savdo aylanmasi 3053,3 mln. AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 131,7%ga o'sdi. Shu jumladan, eksport hajmi 1216,6 mln. AQSH dollarga (155,8%ga oshgan) va import hajmi 1836,7 mln. AQSH dollariga (o'sish sur'ati 119,4%) yetdi. Tashqi savdo saldosini minus 620,1 mln. AQSH dollarini tashkil qildi.

Toshkent viloyatining tashqi savdo aylanmasi
(mln. AQSH dollari)



So'ngi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilinishi, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi. Jumladan, xom-ashyo eksportidan, qo'shilgan qiymati yuqori hamda sarmoya talab tovarlar eksportiga yo'naltirilgan tashqi savdo amalga oshirilmoqda.

Toshkent viloyati tashqi savdo aylanmasining o'sish sur'atlari
(o'tgan yilga nisbatan, %)



Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, 2019 yilning avgust oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar iyul oyiga nisbatan 8,4 mln. AQSH dollariga ko'proq eksport qilindi va 142,2 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Tovarlarning importi hajmi esa 262,0 mln. AQSH dollarini tashkil qilgan bo'lib, bu esa iyul oyiga nisbatan 3,9 mln. AQSH dollariga kamroqdir. Bu asosan mashina va asbob-uskunalar, qora va rangli metallar shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa tovarlarga to'g'ri keldi.

2019 yil yanvar-avgust oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlarning ketma-ketligi joriy yilning yanvar oyidan buyon deyarli o'zgarishsiz bo'lib, faqatgina ularning o'rnini almashib kelmoqda.

**Viloyat tashqi savdo aylanmasida
yuqori ulushga ega davlatlar**
(mln. AQSH dollari)


Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasidagi ulushi, %
Qozog`iston	616,1	139,9	476,2	20,2
Rossiya	530,1	156,6	373,5	17,4
Turkiya	519,8	442,5	77,3	17,0
Xitoy	497,8	176,8	321,0	16,3
Koreya Respublikasi	124,5	7,2	117,3	4,1
BAA	60,6	60,2	0,4	2,0
Tojikiston	59,8	19,1	40,7	2,0
Germaniya	57,1	1,1	56,0	1,9
Qirg`iston	45,5	32,7	12,8	1,5
Belarusiya	43,4	9,7	33,8	1,4
Afg`oniston	43,0	42,7	0,4	1,4
Ukraina	41,0	27,9	13,2	1,3
Litva	38,0	0,2	37,8	1,2
Italiya	36,1	2,2	33,9	1,2
Braziliya	34,1	0,0	34,1	1,1
Meksika	27,7	0,0	27,7	0,9
Angliya	27,3	25,2	2,0	0,9
Eron	24,7	9,6	15,2	0,8
Shveysariya	20,5	9,7	10,9	0,7
Latviya	19,1	1,0	18,1	0,6

Viloyatda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2019 yil yanvar-avgust oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH

davlatlarining ulushi 44,2 %ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 46,1 % ga oshdi.

Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2018 yilning yanvar-avgust oylarida 60,1 %ni tashkil qilgan bo'lsa, 2019 yilning ushbu davrida tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 55,8 %ga yoki 0,3 % punktga kamaydi.

2019 yil yanvar-avgust oylarida tovar va xizmatlarning oylik eksport-import ko'rsatkichlari dinamikasi (mln. AQSH dollari)




EKSPORT




2019 yil yanvar-avgust oylarida eksport hajmi 1216,6 mln. AQSH dollarga (155,8 % ga oshgan) teng bo'ldi. Eksport tarkibida tovarlar 99,3 % ulushga ega, bular asosan qora va rangli metallar (60,6 %), boshqa turdagi tovarlar (15,9 %), oziq-ovqat mahsulotlari (9,5 %), paxta tolasi (9,0 %), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (1,7%) shuningdek, mashina va uskunalar (2,6 %) guruhlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi (mln.AQSH dollari)

2018 yil
yanvar-avgust



2019 yil
yanvar-avgust




Eksport tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
Eksport	1216,6	155,8	100,0	395,9	177,9	100,0	820,8	147,0	100,0
Paxta tolasi	109,9	3,1m	9,0	0,2	13,4	0,0	109,7	3,2m	13,4
Oziq-ovqat mahsulotlari	115,6	138,7	9,5	90,5	173,0	22,9	25,2	81,0	3,1
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	20,6	82,1	1,7	14,4	120,0	3,6	6,2	47,4	0,8
Energiya manbaalari va neft mahsulotlari	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,00	0,0	0,0	0,0
Qora va rangli metallar	737,3	150,9	60,6	144,4	2,2m	36,5	592,8	140,5	72,2
Mashina va asbob - uskunalar	31,2	2,5m	2,6	13,8	3,6m	3,5	17,4	2,1m	2,1
Xizmatlar	8,7	110,0	0,7	1,9	182,9	0,5	6,8	98,6	0,8
Boshqalar	193,3	150,3	15,9	130,7	152,7	33,0	62,7	145,7	7,6

Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning oylar kesimidagi o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar-avgust oylari davomida eng yuqori o'sish sur'atlari yanvar oyida kuzatilgan. Bu asosan qora va rangli metallar, paxta tolasiga to'g'ri keldi.

Tovar va xizmatlar eksportining o'sish sur'atlari dinamikasi
(o'tgan yilga nisbatan,%)




Shuningdek, tovar va xizmatlar eksporti o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2019 yilning avgust oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar iyul oyiga nisbatan 6,3 %ga ko'paygan.

Xizmatlar eksporti hajmi 8,7 mln. AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 0,7%ini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 10,0%ga oshgani kuzatildi.


Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari, turizm xizmatlari, telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari hamda moliyaviy xizmatlar hissasiga to'g'ri keladi.

Tovar va xizmatlar eksporti dinamikasi tahliliga ko'ra, 2019 yilning avgust oyi mobaynida eksport qilingan tovarlar hajmi, iyul oyiga nisbatan 8,4 mln. AQSH dollariga ko'p eksport qilindi va 142,2 mln. AQSH dollarini, shuningdek, xizmatlar eksporti esa 1,2 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

2019 yil yanvar-avgust oylarida tovarlar va xizmatlar eksporti dinamikasi
(oylar kesimida, mln. AQSH dollari)



Viloyat eksportida asosiy hamkor davlatlarning ulushi
(2019 yil yanvar-avgust, %)



Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Turkiya va Xitoy Xalq Respublikasi hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 50,9 % ini tashkil qiladi. Turkiya va Xitoy Xalq Respublikasiga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan energiya manbaalari va neft mahsulotlari, kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar hamda oziq-ovqat mahsulotlari guruhlaridan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

2019 yilning yanvar-avgust oylarida jami 90,5 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot mahsulotlari 89,3 mln. AQSH dollariga eksport qilindi (o'sish sur'ati – 85,8%ga oshgan). Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2019 yilning yanvar-avgust oylarida 58,8 ming tonnadan ko'proq sabzavotlar 39,4mln. AQSH dollariga yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 33,4 ming tonnaga ko'p miqdorda eksport qilingan.

Shuningdek, 19,3 ming tonna meva va rezavorlar 31,8 mln. AQSH dollariga eksport qilingan bo'lib, eksport hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,4 ming tonnaga kamroqdir.

Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

(yanvar-avgust 2019 y.)




Shuni aytib o'tish joizki, viloyatning eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o'zlashtirish natijasida meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalarni eksport qilinmoqda. Jumladan, 2019 yilning yanvar-avgust oylarida meva-rezavorlar hamda sabzavotlar eksport hajmi 71,2 mln. AQSH dollariga yetdi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 67,5 %ga oshgan).

IMPORT


Joriy yilning yanvar-avgust oylarida import hajmi 1836,7 mln. AQSH dollariga (o'sish sur'ati 119,4%) teng bo'ldi. Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob uskunalar (32,2%), oziq-ovqat mahsulotlari (16,4%), qora va rangli metallar (15,4%) hamda boshqa tovarlar (26,0%) guruhlariga to'g'ri keldi.

Tovar va xizmatlar importi tarkibi (mln.AQSH dollari)

2018 yil
yanvar-avgust



2019 yil
yanvar-avgust



■ Oziq-ovqat mahsulotlari
■ Kimyo mahsulotlari va buyumlari
■ Energiya manbaalari va neft mahsulotlari
■ Qora va rangli metallar


■ Mashina va asbob-uskunalar
■ Xizmatlar
■ Boshqalar

Import tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
Import	1836,7	119,4	100,0	954,9	136,0	100,0	881,7	105,5	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari	301,2	3m	16,4	180,2	2,6m	18,9	121,0	3,8m	13,7
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	141,1	140,5	7,7	42,7	2m	4,5	98,5	124,4	11,2
Energiya manbaalari va neft mahsulotlari	19,9	104,2	1,1	18,7	104,5	2,0	1,2	99,7	0,1
Qora va rangli metallar	283,5	89,6	15,4	231,2	101,1	24,2	52,3	59,5	5,9
Mashina va asbob-uskunalar	591,0	85,8	32,2	85,5	39,7	9,0	505,5	106,8	57,3
Xizmatlar	21,7	20,7	1,2	5,5	141,5	0,6	16,1	16,0	1,8
Boshqalar	478,3	2,3m	26,0	391,1	2,7m	41,0	87,1	141,8	9,9

Import qilingan tovar va xizmatlarning oylar kesimidagi o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar-avgust oylari davomida yuqori o'sish sur'ati yanvar oyida kuzatilgan.


Tovarlar va xizmatlar importining o'sish sur'atlari dinamikasi
(o'tgan yilga nisbatan, %)



Shuningdek, tovar va xizmatlar importi o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2019 yilning avgust oyida import qilingan tovar va xizmatlar iyul oyiga nisbatan 1,5 %ga kamaygan.


Xizmatlar importi hajmi 21,7 mln. AQSH dollarini yoki jami import hajmining 1,2 %ini tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 79,3%ga kamaydi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi turizm xizmatlari, transport xizmatlari, qurilish xizmatlari va telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlaridan iborat bo'ldi.

2019 yil yanvar-avgust oylarida tovarlar va xizmatlar importi dinamikasi
(oylar kesimida, mln. AQSH dollari)



Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, 2019 yilning o'tgan davri mobaynida viloyatga import qilinayotgan tovar va xizmatlar avgust oyida iyul oyiga nisbatan 3,9 mln. AQSH dollariga kam import qilindi va 262,0 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.


Viloyat importida asosiy hamkor davlatlarning ulushi
(2019 yil yanvar-avgust, %)



Xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalarining eksport-importi
(2019 yil yanvar - avgust holatiga)

	Eksport-import qilgan korxonalar soni	mln. AQSH doll.	O'tgan yilning shu davriga nisbatan foiz hisobida
Eksport	106	159,5	108,5
Import	339	520,3	149,1

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni, birlikda




2019 yilning yanvar-avgust oylarida viloyatga 90 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 6 ta eng yirik bo'lgan Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Koreya Respublikasi, Turkiya va Germaniya hamkor davlatlarining jami import hajmi 1421,3 mln. AQSH dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 77,4 %ini tashkil qiladi

Yuqorida qayd etib o'tilganidek, import tarkibida asosiy ulushni tashkil qilayotgan mashina va asbob-uskunalar, qora va rangli metallar, oziq-ovqat mahsulotlari hamda boshqa tovarlar viloyatimizga olib kirilayotganligini ko'rish mumkin.

Viloyatimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida viloyatning eksport salohiyati oshib bormoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o'rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.:71-230-86-59**